# FARG’ONA VILOYATI FARG’ONA SHAHAR HOKIMINING QARORI

2023 - yil 27 - dekabr 471-11-169-Q/23 Farg‘ona shahar hokimligi

## Farg‘ona shahrida avtotransport vositalari harakatini tartibga solish hamda yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish haqida

“Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 342-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son qarori ijrosi yuzasidan Farg‘ona shahrida avtotransport vositalarining harakatini tartibga solish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida, shuningdek, Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2023-yil 26-oktyabrdagi 24/3993-son murojaat xati hamda 21-noyabrdagi 24/1681-son xulosa xatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

**Q A R O R Q I L A M A N:**

**1.** Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2023-yil 26-oktyabrdagi 24/3993-son murojaat xati, shuningdek, 21-noyabrdagi 24/1681-son xulosa xati inobatga olinsin.

**2.** Farg‘ona viloyati Ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining xulosalari asos uchun qabul qilinsin.

**3.** Farg‘ona shahrida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, transport vositalari harakatini tartibga solish, shuningdek Farg‘ona shahar 42-umumiy o‘rta ta’lim maktabiga keluvchi aholi o‘rtasida yo‘l-transport hodisalari yuz berilishini oldini olish maqsadida haftaning dushanba-shanba kunlari soat $07^{00}$ dan $08^{30}$ gacha:

Farg‘ona shahar Tarona (Shakarqishloq) va Turon ko‘chalari kesishgan chorrahasiga 3.1 “Kirish taqiqlanadi” yo‘l belgisi;

Tarona (Shakarqishloq) ko‘chasi bilan tutashuvchi yo‘l chorrahasiga (42-umumiy o‘rta ta’lim maktabining old qismi) 3.1 “Kirish taqiqlanadi” yo‘l belgisi o‘rnatilishiga ruxsat berilsin.

**4.** Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (R.Dexqonov) Farg‘ona shahar ko‘chalarida yo‘l belgisi o‘rnatishlishini tashkil etsin hamda mazkur hududlarda avtomobillar harakati cheklanishini nazorat qilib borsin.

**5.** Mazkur qaror ijrosini ta’minlash Farg‘ona shahar hokimining o‘rinbosari J.Baxtiyorov hamda Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i A.Mirzaevlar zimmasiga yuklansin.

**Farg'ona shahar hokimi** **V.Nazarov**